

SIZ NIMA DEYSIZ?

Mulla bilganini o'qiydi

Bilmaganini-chi?! Ilmni boshqalarga ulashmaslik hadisi shariflarda qoralanadi. Yanayam yomoni, ilmi chala bo'lib "ilm" ulashmoqdir. Masalan, bir mulla: "O't atrofida kelin-kuyovni aylantirish johiliya davri qoldig'i", — desa, ba'zilar shoshib qolganidan bu odatni yomonga chiqarib qo'yishi hech gap emas. Shunga o'xshash "hikmat"ni "Oila davrasi" gazetasining yil boshidagi sonlaridan birida o'qib qoldik.

O'zbekiston milliy ensiklopediyasida "johiliya" tushunchasiga shunday ta'rif keltirilgan: "Johiliya (arabchada — bilimsizlik holati, jaholat) — aralar tarixining islomdan ilgarigi davriga berilgan nom. Islomdan oldingi arablarning ko'philigiga "jah" tuyg'usi xos edi. Bu boshqalarga nisbatan beshafqat va vahshiyyona munosabata bo'lishda o'z ifodasini topardi (qason olish zarurati, go'dak qizlarni tiriklayin ko'mish, o'zga qabilan qaviliga dushman sifatida qarash va boshqalar). Islomdan ilgari Arabistonda konunsizlik, axloqszilik, zo'ravonlik hukm surgani uchun ham keyingi avlod o'sha davrni haqli ravishda johiliya deb atagan".

Endi savol tug'iladi: muslimmonchilikdan oldin bizada johiliya davri

yoqil qolib, tan bergen yurtda "johiliya" bo'lgan deyilsa, fikrimizcha, adolatdan emas.

"Mulla" aylanib "domulla"ga o'zgargan", — deydi ayrimlar, keyin esa, "domla"ga. "Domulla"dagи "mulla" tushunmlari, biroq "do" nimaligini hech kim yozmabdi (har qaly, notadagi birinchida yoki rus tilidagi do (gacha) qo'shimchasi bo'lmasa kerak!). Dungan tilida "do" so'zi bor — "katta" ma'ninosini anglatadi. Balki "domla" so'zi shu taxxit hosil bo'lgandir. Kim bilsin yana...

Universitetni dorilfunun, samolyotlar qo'nigindan joyni tayyoragoh, deya xalq chalg'itliganda ko'philik tilshunoslar jum turdi. "Nega tayyoragoh?" — desa "jarroh" bilan "jallof"ni farqlolmay, aralashtrib ayteraveradigan ayrim "bilimdon"lar. "Borsang samolyot seni kutib tayyor turadi, minishing bilan uchadi-ketadi, shuning uchun tayyoragoh-d", — deb tushuntirgan. Agar o'sha "bilimdon"lar Alisher Navoiyning "Lison ut-tary" dostonini o'qib chiqqanda edi, balki biroz mu-shohada yuritib, arabcha "tayr" (qush) so'zidan biron ma'no chiqarib olar va bu so'zning o'zbek tiliga hech qanday

aloqasi yo'qligini anglagan bo'lardi. Ayrim so'zlar, masalan, dasturxon, hafta, dushanba, do'st, "gul" va "dil" bilan boshlanadigan ismlar tilimizga fors tilidan o'zlashgan. Ular barchaga boga tushunmlari. Qadimda xalq iste'molida bo'lib, keyin boshaba tillarga o'tib ketgan, o'miga esa, arabcha muqobil qo'llanilayotgan bitish.

Tarot, qarotso — qalam, o'tluq — dazmol kabi so'zlar xususida ham shu fikri aytish mumkin.

Internatsional so'zlarни o'zbekchalishtirish bahonasida aslida tilimizda arabchu so'zlarini qalashtrib yuborishdan ko'rilgan moddig'i-ma'naviy zarar yetarli. To'g'ri, tilchilar mazruk hodisaga befarq qarayotgani yo'q, o'zaro bahs-munozaralar davom etyapti. Faqat ta'siri oz. Hozir xalq iste'moliga atamalariga ko'proq e'tibor qaratish kerak. Dunyoda keng qo'llanilayotgan xalqaro so'zlarini o'zgartirish zarurati bor ekan, ularning arabcha emas, balki odamlarga tushunrali bo'ladigan muqobilini tanlash ko'proq maqsadga muvofiq, nazarmizda. Axir, "Alpomish"dek dostonlarimizda asl o'zbekcha so'zlar kammi? Yo'q. Lekin negadir ulardan foydalanmaymiz. Shular haqida humratil tilsihos olimlarimiz bosh qotirsa, qani edi.

Oliy o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan yoshlarni talaba (ma'nosisi — so'rovchi, talab qiluvchi) deb ataymiz. Arab tilidan o'zlashgan ushbu so'z ma'no jihatdan o'zbek tilidagi "o'quvchi", "o'rganuvchi", "tinglovchi" kabi so'zlarga

yaqin. O'tmishta madrasada tahsil oladigan o'quvchilarga nisbatan ishlataligan "talaba" hozirda arab mamlakatlarda, Afg'oniston, Ozarbayjon, Eron, Tojikistonda keng qo'llanilmoqda. Iroqdagagi hatto futbol jamaosiga ham "Talaba", deb nom berilgan. Ko'pgina G'arb mamlakatlarda universiteda tahsil olayotganlar "student", deb ataladi. Lotin tilidan o'zlashgan bu so'z o'quvchi, intiluvchi, istovchi degan ma'nolarga ega. Shunday ekan, olyi ta'lim muassasalarida o'qiyotganlarni o'quvchi yoki student, deb atash noto'r'i bo'lmaydi.

Tibbiyotda "tashxis" atamasi mayjud. U asli arabcha so'z bo'lib, belgilanish, ko'sratilish ma'nolarini anglatildi. Qiziq'i, "tashxis" abadiyot istilohi sıfatida ham qo'llanilmoqda. She'rarda jonsiz narsalariga inson xususiyatlari ko'chirib, ulariga tirik mayjudotdek munosabatda bo'lmox san'ati tashxis deyiladi. Bordini, "diagnoz"ni o'zgartirish kerak ekan, tashxis o'miga aniqlash so'zi qo'llanilsa tushunraliroq bo'ladidi.

Biz ayrim atamalar xususida so'z yuritidik. Xulosamiz shuki, har sohadan, jumladan, atamashunoslikda ham ortga emas, oldingan intilish maqsadga muvofiq.

Erkin MUSURMONOV,
Samarkand davlat
universiteti dotsenti,
Orif XOLIQULOV,
jurnalist

YOSHLIK ILHOMI

Berkinmachoq

Er-xotin dam olishga ketadigan bo'ldi. Farzandlariga enaga topdi. Ertasi kuni tushlikdak keyin enaga bolalar bilan berkinnachoq o'ynadi. Kichikintoy Sanjarga hech kim topolmaydigan joyga yashirinishni uqtirdi.

... Qo'shnilar bolani qidira boshladi. Militsiya keldi. Enaga qo'rganidan timmay yig'lardi. Bo'lgan voqeя to g'risida darhol ota-onasiga xabar berishdi...

Sanjar topildi. Omborxonadagi eski sandiqqa berkinib, uqlab qolgan ekan. Kattalar bolani rosa roza koyidi.

— O'zlar hech kim topolmaydigan joyga yashirinig degandi-ku, — dedi bolakay noraizi ohangda.

Shahnoza HAQBERDIYEVA

Bolalar uyida

— Mening ota-onam Yaratganning huzuriga ketdi — jannatga! Jammat nimaligini bila-sanni o'zi?

— Yo'q.

— Jannat shunday joyki, u yerdagi hech kim yig'lamaydi. Hamma kilib yuradi. U yer baxt makoni! Xillas, ota-onam o'sha joyga ketgan.

— Balki mening yaqinlarim ham o'sha yerdadir. Kelaman deb kelmayotganiga ancha bo'ldi.

— Agar jannatga ketgan bo'lsa, kelmaydi.

— Nahotki?! Endi ularni qachon ko'raman?

— Jannatga tushganining!

Sirojiddin INOMOV

Ortiqcha

— Keliningizga: "Bolani oldir", deb atydim. To'rttasi yetadi o'zi. Shundog'am ro'zg'orga yetkazolmay yuribman, — hasrat qildi o'g'il onasiga.

— Shunday degin... Otang ham bir vaqtler seni — beshinchil farzandimni "oldir" demagan ekan-da! Shunda boyib ketarmidik...

O'g'il darhol sergak tortdi.


Nodirabegim IBROHIMOVA

BILASIZMI?



Ishning tugashi bilan keyingi kungi (smenada) ish boshlanishi o'rtasidagi kundalik dam olish vaqtining muddati 12 soatdan kam bo'lishi mumkin emas.

"Yuridik maslahat" kanalidan olindi.



AYLANMA KROSSVORD:
Quyida ta'riflari bayon etilgan va Zahiriddin Muhammed Bobur hikmat hamda g'azallaridan keltirilgan misralardan tushirib qoldirilgan so'zlarini topib shakliga belgilangan xonadan raqami atrofiga soat miliyo'nalishida yozing.

1. Bobur ustoz deb bilgan g'azal mulkinling sulton, mumtoz mutafakkir shoir. 2. Shoirming turkiy va forsiy tillarda g'azallar yozgan to ritchi o'g'li. 3. Bobur tavallud topgan shahar. 4. "Birovning birovdin ... qolur, Kishi yuz so'z birla ko'nglin olur". 5. To'rt misradan iborat, tulga ma'no ifodalovich mustaqil she'r. 6. "Xazon yafrog'i yang lig gul ... hajrida sarg ardim". 7. "Bobur" videofilmida taniqli aktyor Lutfulla Sa'dullayev gavdalantirgan qahramon. 8. "Pir oldida torpg'usi murodin ... har kimki agar shogirdi sodig' bolg'ay". 9. Shoh va shoirming birlachi o'g'li, Boburiylar davlati hukmdori. 10. Shoir vasiyatiga ko'ra maqbara o'rnatilgan shahar. 11. Ijod sohibining ko'plab asarlari bitilgan janr. 12. Bobur Mirzo qo'shinlarini Dehli sultonni Ibrohim Lo'diy lashkarlari ustidan zafar quchgan jang bo'lib o'tgan shahar. 13. Mumtoz nazmga mansub janr. 14. Shoh va shoir muqaddas va aziz deb



yetuk shoiri, Boburning farzandi. 18. Shoirming ona tomonidan buvasi Yunusxon hokimlik qilgan shahar. 19. "Chora darding'a magar pir etgay, Chorasiz ishima ... etgay". 20. Alloma ijodkor homiyliq qilgan miniatyur san'ati ustoz. MUAMMONOMA. Kalit so'zlar: 1. Alloma shoir Boburiylar davlati sulolasiga asos solgan mammakat — 16, 1, 12, 4, 1, 20, 7, 8, 12. 2. O'rta asr sharaqda birlachi tarixchi olimga, "Humoyunnoma" asari muallifi, ijod sohibining qizi — 10, 13, 18, 9, 2, 4, 2, 12, 9, 14, 10, 1, 15. 3. O'rta asrlarda shahar hokimi unvoni — 4, 8, 5, 13, 3, 2. 4. Qadimda shohlik saroyida turli marosimlarni o'tkazish mutasaddisi — 14, 6, 1, 19, 8, 3, 2. 5. Bobur huzurda bo'lgan muntoz qasidanasin shoir — 9, 1, 12, 8, 1, 11. 6. Muhim tarixiy voqeя va mashhu tarixiy shaxslar haqida yoziladigan asar — 17, 2, 20, 1, 4, 2. Shakl atrofidagi raqamlarni kalit so'zlarini javoblaridagi mos harflar bilan almashtrish orqali kriptogrammani hal eting. Bunda ulardan alloma ijodkorming ikki misra hikmatini bilib olasiz.

Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV

QILICHBOZLIK BELLASHUVLARIKA MARHAMAT!

2019-YIL 15-17-FEVRAL KUNLARI
TOSHKENTDA MARKAZIY OSIYO QILICHBOZLIK
KONFEDERATSIYASINING O'SMIRLAR VA KADETLAR
O'RTASIDA I OCHIQ CHAMPIONATI BO'LIB O'TADI.
SHU MUNOSABAT BILAN ENG JOZIBADOR VA SARA
SPORT TURLARIDAN BIRI BO'LGAN — QILICHBOZLIKKA
QIZIQUVCHI BARCHA HAMYURTALARIMIZ
VA POYTAXTIMIZ MEHMONLARINI MAZKUR
BELLASHUVLARGA TAKLIF ETAMIZ!

Musobaqalar 15-fevral soat 10:00 da poytaxtimizdagи
Gimnastika sport saroyida start oladi.
Manzil: Yunusobod tumani, Korhojiota ko'chasi, 2A-uy



E'LN



MAASSIS
O'ZBEKISTON YOSHLAR ITTIFOQI
MARKAZIY KENGASHI

Gazeta O'zbekiston Matbuot va
axborot agentligida 2017-yil
2-avgustda № 0242 raqami bilan qayta
ro'yxatdan o'tgan.

BOSH MUHARRIR
Faxriddin KARIMOV

Mansur Bekmurodov, Begmat Ochillov, Madamin Safarov, Azim Mirzajonov,
Mehrinoz Abbosova, Ra'no Shodiyeva, Shodmonqul Salomon,
Irina Kochergina — bosh muharrir o'rinnbosari ("Molodezh' Uzbekistana"),
Javlon Vafoyev — mas'ul kotib ("Yoshlar ovozi"),
Yelena Kalinina — mas'ul kotib ("Molodezh' Uzbekistana")

Navbatchi
Boboravshan
G'OIDZIDINOV


Dizayner
Xurshid
ABDULLAYEV

Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida terildi va sahilafandi.

Tahririyat manzili: 100083, Toshkent,
Matbuotchilar ko'chasi, 32.

Telefonlar: (71) 150-22-74,
(71) 233-95-97,
(71) 233-79-69 (faks)

Saytemizga o'tish uchun
QR-kodini telefoniga organi
skanner qiling



"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi
bosmaxonasida, A-2 formatida chop etildi.

Hajmi — 2 bosma tabloq.

Korxona manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41.

Indekslar: 203, 3203

Bahosi kelishilgan narxda.

Burjuma G-213

Adadi — 21400

Bosishga topshirish vaqtı — 21.00

Topshirildi — 21.25

O'zA yakuni — 21.05

1 2 3 4 5